O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG’-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI

RAQAMLI DASTURDA BOSHQARILADIGAN DASTGOHLARNI DASTURLASH ASOSLARI

fanidan o‘quv uslubiy majmua

Tuzuvchi: **Mashinasozlik texnologiyasi kafedrasi dotsenti**
Isayev Doniyor Toshbotirovich

NAVOIY – 2025 y

MUNDARIJA

O’UMning asosiy bo’limlari

№

1. O’quv materiallar

1.1. Ma’ruza ……

1.2. Amaliy …….

1.3. Laboratotiya …..……..

1.4 Kurs loyihasi ……..

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG’-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI
«MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI

RAQAMLI DASTURDA BOSHQARILADIGAN DASTGOHLARNI DASTURLASH ASOSLARI

fanidan

MA'RUZA

Ma’ruza 1

Mavzu: Kirish. RDB dastgohlari uchun mo’ljallangan uskunalar haqida umumiy ma’lumotlar

Reja

1. RDB dastgohlari to’g’risida umumiy ma’lumotlar
2. RDB tizimi avlodlari. Asosiy tushuncha va terminlar
3. RDB dastgohlarining konstruktiv xususiyatlari
4. RDB tizimlarining klassifikatsiyasi

Tayanch so`zlar: raqamli dasturli dastgohlar, klassifikatsiya, boshqarish, tizim, operator, sikl, datchik, dastur.

RDB dastgohlari to’g’risida umumiy ma’lumotlar

Boshqarish deganda ishlov berish texnologik siklini bajaruvchi mexanizmlarga ta’sir qilishning butunligi tushuniladi, **boshqarish tizimi** deganda shu ta’sirlarni amalga oshiruvchi qurilma yoki qurilmalar to’plami tushuniladi.

Dastaki boshqarish dastgoh operatori qabul qilgan u yoki bu ishchi sikl elementlarini ishlatish qaroriga asoslanadi. Operator qabul qilingan qarorlar aosida mos keluvchi dastgoh mexanizmini yoqadi va ishlashi uchun kerakli parametrni beradi. Dastaki boshqarish operatsiyasi har xil maqsadlarda ishlatiladigan avtomatlashtirilmagan universal va maxsus dastgohlardan tashqari avtomatlashtirilgan dastgohlarda amalga oshiriladi.

Dastaki boshqaruvli avtomatlashtirilgan dastgohlarda sozlash rejimlarini va ishchi sikl maxsus elementlarini amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Dastaki boshqaruvli avtomatik dastgohlarda odatda ijro organlar holat datchiklaridan keladigan raqamli indicator ma’lumotlari bilan moslashtiriladi.

Avtomatik boshqaruvda ishchi sikl elementlarini ishlatishda boshqaruv tizimi operatorsiz qaror qabul qiladi. U dastgoh mexanizmlarni yoqish va o’chirish komandalarini beradi va ularning ishlarini boshqaradi.

Ishlov berish sikli deb har bir zagotovkaga ishlov berishda takrorlanadigan ishchi organlarning ko’chishidagi butunligidir.

Dastgoh ish siklidagi ishchi organlarning kompleks ko’chishi ma’lum bir ketma-ketlikda va dastur asosida amalga oshiriladi.

Boshqaradigan dastur - ma’lum bir zagotovkaga ishlov berishda dastgoh ishlashining berilgan algoritmiga mos keluvchi buyruqlar to’plami.

Algoritm deb maqsadga erishish usulari bilan ularni bajarish jarayoni sharhiga aytiladi.

Sikl dasturli boshqaruv (SDB)

SDB tizimi dastgoh ishchi organlarining ko’chish kattaligini asbobni almashtirishni, ishlov berish rejimini va dastgoh ish siklini qisman yoki butunlay dasturlash imkonini beradi. U analogli boshqaruv tizimining yopiq tipi hisoblanadi va yuqori egiluvchanlikkka ega, apparatlarni yoqish ketma- ketligini o’zgartirish osonligi. (1-rasm)



1.1-rasm. SDB qurilmasi

.SDB tizimi sikl dasturlagich, avtomatika sxemasi, bajaruvchi qurilmalar va teskari aloqa qurilmasini o’zichiga oladi. (2-rasm)

Ayniqsa SDB qurilmasi sikl dasturlagich va avtomatika sxemasidan tashkil topgan.



1.2-rasm

Dastgohniboshqarishdegandaishlovberishtexnologiksiklinibajarishnita’minlaydiganmexanizmlargata’sirningbutunligitushunish,

qabulqilingantizimniboshqarishdegandaesabuta’sirlarniamalgaoshirishdagibirlikyo kiqurilmatushuniladi.

Raqamlidasturliboshqaruv (RDB) – bironbirtashuvchidayozilganmassivma’lumotlarko’rinishidagidasturorqaliboshqarilad i.

RDBtizimiboshqaturdagiboshqaruvtizimlarinisiqibchiqarrmoqda.

RDBtizimlaritexnologikmaqsadigavafunksionalvazifasigako’raquyidagi 4 guruhgabo’linadi:

- **Pozitsion** –ijrochi organlar ishchi siklda aniq bir elementni bajargandan keyin ular holatining yakuniy nuqtalari koordinatalari beriladi.
- **Konturli yoki uzluksiz** – berilgan egri chiziqli trayektoriya bo’yicha ijrochi organlar harakatini boshqarish.
- **Universal (kombinatsiyalashgan)** – asboblarni almashtirish, hamda trayektoriya bo’yicha ijrochi organlarning harakati hamda pozitsiyalashda ko’chishni dasturlashni amalga oshiradi.
- **Ko’p konturli tizimlar** – dastgoh mexanizmlari va uzellar qatorini ishlashini boshqarishni ketma-ket yoki bir vaqtning o’zida ta’minlaydi.

Dasturli boshqaruvli dastgohlar boshqaruv turiga qarab dastgohlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- SDB tizimli dastgohlar
- RDB tizimli dastgohlar

Raqamli dasturli boshqarish tizimi (RDBT) – bu RDB dastgohlarida bajarilish uchun kerak metodlar va vositalar, maxsuslashtirilgan qurilmalarning to’plami.

RDB dastgohlarining qurilmasi (RDBQ) – bu berilgan dastur bo’yicha boshqariladigan ta’sizlarni berilishini amalga oshirishni bir butun qilib bajaradigan RDBT ning qismi.



1.3. rasm

RDB tizimi avlodlari. Asosiy tushuncha va terminlar.

RDB tizimining 1-avlodi.RDB tizimining 1-avlodi uchun diskret yarim o'tkazgichli element bazasi xarakterlidir. 1-avlod RDB qurilmalari modellari PRS1-58, PRS-ZK, K-4MI. Shu bilan birga 1-avlod RDB qurilmalarida K2P-67, KZP-68, UMS-2 dasturni kiritish 5 yo'li perfolentada amalga oshiriladi. (kodBTSK-5).

RDB tizimining 2-avlodi.RDB tizimining 2-avlodida boshqarish algoritmini sxemali ravishda amalga oshiruvchi kichik (155 seriya) va o'rta (176 seriya) darajadagi integrasiyali elementlar bazasi bor. 2-avlod RDB qurilmari modellariga N22, NZZ, N55, P-33, «Razmer 2».

RDB tizimining 3-avlodi.RDB tizi mining 3-avlodi EHM asosida yaratilgan («Elektronika-60», «ElektronikaNTS-03» vah.k), BIS (589 seriyavah.k.). 3-avlod RDB qurilmalari modellari 15MP, «Razmer 4M», 2S42, 2S85, 2U32, 2MCHZ, «ElektronikuNTS-31

RDB tizimining 4-avlodi.4-avlod RDB qurilmalari uchun blokli multiprosessor xarakterlidir. 4-avlod RDB qurilmalari modellari «Elektroniku MS2101», ZS100, ZS200.

RDB tizimining 5-avlodi.5-avlod RDB qurilmalari sanoat shaxsiy kompyuterlar asosida yaratilgan.

RDB dastgohlar quyidagi texnologik guruhlarga bo'linadi:
Tokarlik dastgohlar guruhi
Parmalash va yo'nib kengaytirish dastgohlar guruhi
Jilvirlash dastgohlar guruhi
Tishlarga ishlov berish dastgohlar guruhi
Elektrofizik dastgohlar guruhi
Ko'pmaqsadlidastgohlarguruhi

RDBs tanoklarning belgilanishi.RDB stanoklarni modelini belgilashda bazaviy stanok modeli belgilaridan va 1 dan 4 gacha raqami bo`lgan F harfidan foydalaniladi.

F1 – raqam indekatsiyali va koordinatalarni oldindan berish stanoklar;
F2 – pozitsion vat o`g'ri burchakli RDB sistemali stanoklar;
F3 – kontur RDB sistemali stanoklar;
F4 – pozitsion va kontur ishlov berish uchun universal RDB sistemalis tanoklar.

Bundan tashqari, asboblarni avtomatik almashtirish RDB stanoklarda F harfi oldida stanokni asboblar magazine yoki revolver asboblar kallagi bilan jihozlanganligiga qarab M yoki R harfi yoziladi. Aniq stanoklarni belgilashda ularning aniqlik sinfini harakterlovchi harflar:

P – oshirilgan aniqlik;

V – yuqori aniqlik;

A – o`ta yuqori aniqlik;

S – o`ta aniq

Harflari yoziladi.

F harfidan so`ngь stanokni boshqarish uchun foydalaniladigan konkret RDB qurilmasini belgilovchi shartli raqam yozilgan bo`lishi mumkin. Ba`zi RDB stanoklarning belgilanishi va ularning o`qilishini keltiramiz:

–2450AF1 – A klass aniqlikdagi raqamli koordinataviy teshik yo`nish stanogi;

– 2R135F2 – pozitsion RDB sistemali vertical parmalash stanogi;

– 16K20F3-S5 – konturli RDB sistemali, «N22-1M» RDB qurilmali tokarlik stanogi;

– 16B16F306 – «Programma 20 A» RDB qurilmasidan boshqariladigan tokarlik stanogi (tez harakat tezligi 9,6 m/min,surish yuritmasi qadamli kuch dvigatellarida).

– 6R13F3 – RDB vertical frezalash stanogi;

– 6R13RF3 – revolver asboblar kallakli vertical frezalash stanogi;

– 1P716MF3 – asboblar magazinli (12 asbobli) RDB tokarlik patronli stanogi;

– 2204VMF4 – «Razmer-2M-1300» universal RDB sistemali, asboblar magazinli (30 asbob) buriladigan krestoviy stolli, yuqori aniqlikdagi gorizontal frezalash, parmalash-teshik yo`nish stanogi.

Mikro EHM va KIS asosida yaratiladigan RDB qurilmali stanoklar (masalan, 16 K 20 F3S32 – «2R22» RDB qurilmali patron-markazli tokarlik stanogi) keng texnologik imkoniyatlarini, RDB qurilmasi xotirasida boshqarish dasturini saqlash, butun RDB sistemasining ishonchliligini oshirish va dasturlash mehnat talabligini aytarli darajada kamaytirish imkonlarini beradi (masalan, 2R32, NTS-31).

Stanokni raqamli dastur bilan boshqarish (RDB) deganda stanok dazagotovkaga boshqaruvchi dastur bo`yicha ishlov berish tushuniladi. Bu dasturda ishlov berishga oid ma`lumotlar raqamlar shaklida keltiriladi

Boshqaruvchi dastur – konkret zagotovkaga ishlov berish uchun stanokning ishlash tartibini belgilovchi dasturlash tilida yozilgan komandalar majmuasidir.

Boshqaruvchi dasturlar qo`lda (EHM dan foydalanmasdan) va avtomatlashtirilgan usulda (EHM niqo`llab) tayyorlanishi mumkin.

Boshqaruvchi dastur kadri, so`zi, nomeri va kadr shakli, shuningdek, RDB manzili (adresi) tushinchalari mavjud.

Boshqaruvchi dastur kadri – dasturning kiritiladigan va yaxlit ishlanadigan hamda tarkibida kamida bitta buyruq bor bo`lgan tarkibiy qismidir.

**Boshqaruvchi dastur so`zi** – kadrning zagotovkaga ishlov berish jarayoni ko`rsatkichlari to`g'risidagi ma`lumotlarni yoki boshqarishga oid boshqa ma`lumotlarni o`z ichiga olgan tarkibiy qismidir.

RDB manzili (adresi) – boshqaruvchi dastur so`zining bir qismi bo`lib, ushbu so`z tarkibidagi ma`lumotlarning vazifasinibelgilaydi.

Boshqaruvchi dastur kadrining nomeri – kadr boshidagi so`z bo`lib, boshqaruvchi dasturdagi kadrlarning navbatini belgilaydi.

Boshqaruvchi dastur kadrining shakli – so`zlar soni eng ko`p bo`lgan boshqaruvchi dastur kadridigi so`zlarning strukturasi va joylashishining shartli yozmasi.

Asosiy kadr – tanaffusdan keyin zagotovkaga ishlov berish jarayonini davom ettirish uchun zarur bo`lgan barcha ma`lumotlarni o`z tarkibiga olgan boshqaruvchi dastur kadridir, U maxsus ishora bilan belgilanadi.

**Mutlaq (absolyut) o`lcham** – boshqaruvchi dasturda ko`rsatiladigan va nuqtaning qabul qilingan xisoblash noliga nisbatan Holatini ko`rsatadigan chiziqli yoki burchak o`lcham.

Stanokningnolnuqtasi – stanokkoordinatalariningboshidebqabulqilingannuqta.

Stanokning qat`iy belgilangan nuqtasi – stanokning nol nuqtasiga nisbatan aniqlanadigan va stanok ishorasiningHolatinianiqlashuchunfoydalaniladigannuqta.

Ishlov berishni boshlash nuqtasi – detaldagi nuqta bo`lib, detalning barcha o`lchamlari shu nuqtaga nisbatan beriladi.

Erkin nol – RDB sistemasining ish organiningsiljishi (ko`chishi)nihisobl ashboshinistanokningnolnuqtasiganisbatanistalganxolatgaqo`yishxossasi.

KO`P OPERATSIYALI STANOKLAR TASNIFI VA XARAKTERISTIKASI

RDB ko`p operatsiyali stanoklar detalni stanokda bir o`rnatishda juda ko`p operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beradi, bu esa juda ko`p o`tishlar ni bajarish talab etilganda katta samara beradi. Stanoklar detallart urini (aylanuvchi jism, korpus, yassi va h.k) inobatga olgan holda texnologik vazifasi bo`yicha, ishlov berish aniqligi (oshirilgan, yuqori va h.k.) va ishlab chiqarishning seriyaligi bo`yicha tasniflanadi. Konstruktiv belgilari bo`yicha ko`p operatsiyali stanoklarni korpus detallariga kompleks frezalash, teshik yo`nish ishlov berishi uchun (stoli eni 250x400 mm) gorizontal shpindeli va buriladigan stolli; yassi detallarga kompleks ishlov berish uchun (stoli eni 250x1000 mm) vertikal shpindelli, katta uzunlikdagi detallarga kompleks ishlov berish uchun (stoli eni 400x2500 mm) bo`ylama stol lis tanoklarga bo`lishadi. Hozirgi kunda aylanuvchi jism turidagi detallarga ishlov berish uchun ko`p operatsiyali stanoklar ham ishlab chiqarilmoqda.

Ko`p operatsiyali stanoklarni ko`pchilik hollardaf rezalash, parmalash va teshik yo`nish stanoklar asosidai shlab chiqariladi. Ishlov beriladigan detallar tahlilidan shu narsa o`rnatilganki, ko`p operatsiyali stanoklarning krest stolli va gorizontal yoki vertikal shpindelli o`rtacha o`lchamdagi kompanovkasi eng maqsad ga muvofiq hisoblanadi. Konsolsiz kompanovkadagi krest stolli gorizontal shpindeli stanoklar ko`pchilik hollarda buriladigan stol bilan jihozlanadi. Bunday kompanovka stoli konsolli joylashtirilgan stanoklarga nisbatan yuqori bikrlikka ega bo`lib, ishlov berishning yuqori aniqligini ta`minlaydi, stolning balandlik bo`yicha doimiy joylashishi RDB stanogini zagotovkani avtomatik almashtirish qurilmasi bilan jihozlash imkoniyatini ta`minlaydi. Stoli bo`ylama harakatlanadigan bir yoki ikki ustunli ko`p operatsiyali stanoklar oshirilgan uzunlikdagi detallarga ishlov berish imkoniyatini yaratadi. Bunday stanoklar krest stolli stanoklarga qaraganda ham yuqori bikrlikka ega.

Zamonaviy texnik daraja RDB stanoklarning ish unumiga va texnologik imkoniyatlariga yuqori talablar qo`yadi. Bunday yuqori talablar stanok bikrligini, bosh yuritma quvvatini (1,5 marta), shpindel aylanishlar chastotasining yuqori chegarasini (4000 ayl/mingacha), ishchi surishlar tezligini (3000 mm/mingacha) va tezyurishlari (10 m/mingacha) oshirish hisobiga, asboblarni avtomatik almashtirish vaqtini (3-5 sek) qisqartirish hisobiga, ko`p asbobli kallaklar, zagotovkani yuklashni mexanizatsiyalash, yuqori momentli doimiy tok elektrodvigatellari (bunday dvigatellar surish yuritmasining, ayniqsa o`tish jarayonlarida, yaxshi dinamik sifatini ta`minlaydi) qo`llash hisobiga, konturli RDB qurilmalarini, shu jumladan, integral elementlardan tuzilgan qurilmalar hamda releli avtomatika o`rniga elektron

avomatikani qo`llash hisobiga, teskari aloqa maqsadida induktosin turidagi zamonaviy datchiklarni qo`llash hisobiga, har xil texnologik vazifadagi frezalash, teshik yo`nish, jilvirlash babkalarini qo`llash, og'ir stanoklar uchun gidrostatik yo`naltiruvchilar va chervyak-reyka uzatmalarini qo`llash hisobiga erishiladi.

Ko`p operatsiyali stanoklarning ko`pgina modellari shpindelni gorizontal joylashgan sxemasi bo`yicha ishlangan.

Korpus detallariga ishlov berish uchun ko`p operatsiyali stanoklar. MDH korxonalarida Ivanovs tanoksozlik birlashmasida ishlab chiqilgan ko`p operatsiyali stanoklar keng tarqalgan. Bu stanoklar keng tur o`lcham diapozonidai shlab chiqariladi, ba`zi stanoklar moslanuvchan ishlab chiqarish modullari sifatida ham tayyorlanadi.

RDB dastgohlarining konstruktiv xususiyatlari

RDB STANOKLARNING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI

RDB stanoklarning asosiy bazaviy uzellari yuqori aniqlikda, bikrlik, titrashga bardoshli, ishonchli qilib tayyorlanadi, chunki ular qimmatbaho avtomatlashtirilgan jihozlar bo`lib, sutkada ikki va undan ortiq smenada ishlashi talab etiladi.

Staninalar.RDB stanoklarning staninalari asosiy bazaviy element hisoblanadi, chunki ularda stanok yo`naltiruvchilari joylashtiriladi.Staninalarning quyidagi turlari uchraydi.

1.CHo`yans taninalar, toblangan va jilvirlangan po`lat yo`naltiruvchilar, rolikli dumalash va gidrostatik yo`naltiruvchilar bilanj ihozlanadi.

2. Payvand staninalar va ustunlar, ko`pchilik hollarda to`g'ri burchakli shakldagi toblangan yo`naltiruvchilarga ega, maxsus texnologiyada payvandlash va termo ishlov berish olingan aniqlikni uzoq vaqt saqlashni ta`minlaydi.

RDB tokarlik stanoklar staninalari qirindi chiqishini ta`minlash uchun yo`naltiruvchi tekislikning vertikal yoki qiya holatiga ega.

**Yo`naltiruvchilar**. Yo`naltiruvchilarning sirpanish, dumalash va kombinatsiyalangan turlari mavjud. RDB stanoklarda dumalash va kombinatsiyalangan yo`naltiruvchilar eng keng tarqalgan. Bunday yo`naltiruvchilarda yirik aylanib keladigan toblangan po`lat plankalar foydalaniladi, planka bo`yicha oldindan yuklangan rolikli tayanchlar harakatlanadi (aylanib keladigan rolikli yo`naltiruvchilar).

Rolikli tayanchlar (ularni ba`zida tanketkalar deb ham ataladi) har xil rostlovchi qurilmalar yordamida stanina (11) da o`rnatiladi (1.5-rasm).



1.5-rasm.Staninada rolikli tayanchlarni o`rnatish sxemasi.

Tayanch (1) pona (2) da mahkamlangan, pona bo`ylama yo`nalishda ikkita vint (15) yordamidasiljishi mumkin. Ikkinchi tayanch stanina ning boshqa tomonidan joylashgan vavint (8) yordamida siljishi mumkin, u esa ponali tayanch (5) bilan bog'langan. Ponalar (2) va (5) ponalit ayanchlar (3) va (7) ga tayanadi, ular esa yon tomonlardan (14) va (9) bilanc heklangan va sferik kallakli shtiftlar (10,13) ga tayanadi. Tayanchlar orasida qistirma (4) joylashgan.

Yig'ilgan uzelni yakuniy rostlangandan so`ng bushliq (12) tezqotadigan suyuq plastmassa bilan to`ldiriladi. U qotganidan so`ng ponalar (2) va (5) larni siljitish yo`li bilan uzel bikrligini ta`minlaydigan taranglik yaratiladi.

Dumalash yo`naltiruvchilarining kamchiligiga konstruktsiyaning qimmatligi va harakat yo`nalishida dempferlash xususiyatining pastligi kiradi.

Detallarga ishlov berishda ba`zi hollarda, stanokning harakatlanuvchi elementlarini mahkamlash kerak bo`ladi. Bu esa har xil siqish qurilmalari bilan amalga oshiriladi. 2623PMF U stanokda foydalanilgan (1.6-rasm) trubasimon siqqich original konstruktsiyaga ega. Moy bosimi ostida truba (1) va planka (2) orqali taranglikni vujudga keltiradi va stanokning bajaruvchi organi (3) ni stanina (7) ga nisbatan qotiradi. Trubasimon siqqich qotirishning tezkorligi va bikrligini ta`minlab tirnalishni oldini oladi. RDB stanoklarda boshqa turdagi: gidrostatik, aerostatik vah.k.yo`naltiruvchilar ham keng qo`llaniladi.



1.6-rasm. Kombinatsiyalangan yo`naltiruvchilar (dumalash-sirpanish):
1 – trubka; 2 – planka; 3 – harakatlanuvchi stol; 4 – stolning sirpanuvchi yo`naltiruvchisi; 6 – siqish plankasi; 7 – staninaning o`rnatilgan yo`naltiruvchisi; 8 – stanina.

Bosh yuritma. RDB stanoklarning bosh yuritmalariga quvvat bo`yicha yuqori talablar qo`yiladi va RDB qurilmasidan boshqarishda tezlikni pog'onasiz rostlashni ta`minlashi talab etiladi. Bosh yuritmaning har xil turlari: asinxron elektrodvigatelli, rostlanadigan doimiy tok elektrodvigatelli, gidrokuchaytirgichlar bilan birga qo`llanadigan elektro dvigatelli turlaridan foydalanadi.

SHpindel'. RDB stanok shpindelining bikrligi va aylanish aniqligiga yuqori talablar qo`yiladi. Stanok shpindel uzellarida issiqlikning chiqib ketishiga katta ahamiyat beriladi, issiqlik odatda maxsus moylash va sovitish sistemasi bilan amalga oshiriladi.

Surish yuritmasi. RDB stanoklar surishyuritmalari quyidagi talablarga javobberishi kerak:

– surishlarni keng diapozondagi rostlash ga 1 dan 10000 mm/min egabo`lishi;

– kinematik zanjirlarining yuqori bikrligiga va yurish ravonligiga, ayniqsa, sekin harakatlarda, ega bo`lishi;

– oshirilgan xizmat muddatiga ega bo`lishi va RD B qurilmasi tomonidan distantsion boshqarish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak.

RDB stanoklarda surish yuritmalarining quyidagi turlari foydalaniladi:

– elektromagnit muftalar bilan qayta ulanadigan mexanik surishlar qutisi orqali, asinxron elektro dvigatelli yuritma;

– aylanishlar chastotasini keng tirqishda rostlashni ta`minlaydigan o`zgartirgichga (masalan, tiristorli) ega doimiy tok elektrodvigatelli yuritma;

– yuqori energetik doimiy magnitlardagi past aylanishlarga ega (1000 ayl/min) dvigatellardan foydalanadigan elektrik yuritma, bunday yuritma RDB metall kesish stanoklarda ko`p hollarda oraliq reduktorlarsiz bevosita yuritish vinti bilan ulanadi;

– gidro tsilindr yoki gidro dvigatelli gidro yuritma, bunda gidro dvigatel odatda yuritmaning oxirgi zvenosiga o`rnatiladi (ko`pchilik hollarda, bu zveno dumalash vinti gayka juftligi).

Dumalash vint-gayka uzatmalari RDB stanoklar surish yuritmalarida keng qo`llanadi, chunki sirpanish vintli juftliklariga nisbatan ularning FI Kancha yuqori, ularning tinch va harakatdagi ishqalanish koeffitsientlari deyarli bir xil bo`lsada, lekin

ishqalanish koeffitsienti harakat tezligidan bog’liq emas. Tirqishni tanlashda uzatma tirqishsiz juftlikni hosil qilib, etarlicha yuqori o`qiy bikrlikka ega bo`ladi. 0 sinf vintli uzatmalarida 300 mm da yig’iladigan xatolik 3 mm ni va 1000 mm da 7 mkmni tashkil etadi, 1 sinfdagilarda esa 10 mkm 300 mmga, 20 mkm 1000 mmga teng.

RDB stanoklar surish yuritmalarida taranglikni avtomatik rostlaydigan uzatmalar ham qo`llanadi. Bu esa tez harakatlarda (20 m/min) taranglikni kamaytirib qizishni kamaytirish ishchi harakatlarda esa taranglikni oshirib, yuqori bikrlikni ta`minlash imkoniyatini yaratadi. O`zicha o`rnatiladigan gaykali konstruktsiyalar ham foydalaniladi.

Adaptiv boshqarishni ta`minlash maqsadida qirqish kuchini o`qiy tashkil etuvchilarini o`lchash datchiklari bilan jihozlangan surish yuritmalari ishlab chiqilgan. Sharikli juftlikdan tashqari og’ir RDB stanoklar surish yuritmalaridagi drostatik vint-gayka uzatmalari ham qo`llanadi [12].

Teskari aloqa datchiklari. Hozirgi vaqtda RDB stanoklarning barchasi yopiq boshqarish sistemalari bo`lib, teskari aloqa datchiklariga ega. RDB stanoklarda turli xil konstruktsiyadagi datchiklar: magnit; fotoelektrik; induktsion; elektrik; optik; ul’tratovush; lazerli va h.k. qo`llaniladi. Ulardan asta-sekin eng qulaylari ajralib chiqmoqda.

Teskari aloqa datchiklari chiziqli va aylanali turlarga bo`linadi. Chiziqli turlariga chiziqli induktosin (0,01 mm) va optik shkala (0,001 mm), aylanali turlariga aylanali induktosin (0,01 mm) va aylanuvchi trans shakldor, yoki rezolver (0,01 mm) kiradi. Keyingi vaqtda jadal suratlarda interferometr asosidagi lazerli datchiklar 0,001 mm yaratish bo`yicha ishlar olib borilmoqda, ularani RDB stanoklarda qo`llanadi.

Chiziqli induktosin (1.7,*a*-rasm) stanokning quzg’almas qismiga bikr mahkamlangan chizg’ich I va stanokning qo`zg’aluvchi qismi bilan birga harakatlanadigan slayder II dan iborat.

Induktosin chizg’ich si asosi bo`lib izolyatsion materialyokialyuminiydantayyorlangandetal (1) xizmatqiladi. Budetalizolyatsionmaterialbilanqoplanib,undamischulg’am(3) (meandrqadami 2 mmbilan) o`raladi. Mis chulg’am ustidan lak qatlami (4) qoplanadi. Slayder II ekran(5)bilanjihozlanganbo`lib, umischiziqchalardaniborat. SlayderdaikkitaS1–S3 vaS2–S4 pechatlanganchulg’amlarbajarilgan, ularbir-biriganisbatan 1/4 qadamgayokifazabo`yicha 90^0siljitilgan (1.7,*b*-rasm).

Slayder stator bo`lib, uning chug'a mlariga chastotasi 4000 Gts o`zgaruvchan tok beriladi. Induktosin chizg'ichi rotor bo`lib, uning chulg'amidan sinusoidal kuchlanish ko`rinishidagi U_a signal olinadi (1.7,*d*-rasm).



1.7-rasm. Teskari aloqa datchiki:

a-d – chiziqli induktosin; e – aylanuvchi trans shaklitor.

Slayder magnit maydoni boshidan oxirgacha harakatlanadi va boshiga qaytadi, va yana oxirgacha boradi. CHizg'ich induktsiyalangan kuchlanish fazasidagi siljishi chizg'ich chulg'amining slayder chulg'amiga nisbatan holatiga bog'liq. Slayderning siljishid avriy ravishda faza siljishini minimumdan maksimumgacha o`zgarishiga olib keladi; bu esa faza siljishlarini impul'sga (kodga) o`zgartirish sistemasida mos elektr signal impul'slarini ta`minlaydi. Ixtiyoriy vaqt oraliqlarida hisoblagich aniqlangan impul'slar summasi stanok bajaruvchi organining harakatini beradi.

Optik shkala – bu chiziqli optik o`lcham sistemasi induktosinga nisbatan birqancha afzalliklarga ega. U ifloslanishlarga kam sezgir bo`lib, hisoblash kallagi vachizg'ich orasidagi masofani rostlash aniqligiga yuqori talablar qo`ymaydi. Sistemaning ishlashi o`zgartirgich fotodiodlari qaytargan nurni hisoblashga asoslangan.

Aylanuvchi trans shakltor (rezolver) –bu rotorning aylanish burchagini sinusoidal tokka o`zgartiruvchi o`zgaruvchan tok mikromashinasidir. Aylanuvchi trans shakltor statori (1.7,*e*-rasm) ikkita bir fazali chulg'amlar S1 – S2 va S3 – S4 ga ega bo`lib, ular diffuzorga nisbatan $90^0$ siljitilgan. Rotor ham ikkita chulg'amga ega bo`lib, (R1 – R2 vaR3 – R4), ular ketma-ket ulangan. Magnit o`tkazgich elektro texnik po`latli stlaridan yoki permalloydan tayyorlanadi. Rotor va statorlarda bir tekis ariqchalar joylashtirilgan bo`lib, ularda o`zaro perpendikulyar chulg'amlar o`rnatilgan. Aylanuvchi trans shakltorlarda birlamchi chulg'amlar ko`p hollarda,

stator chulg’ami hisoblanadi, ikkilamchi esa – rotor chulg’ami bo`lib, harakatlanuvchi element bilan bog’langan bo`ladi. Rotorning burilishida undan sinusoidal kuchlanish olinadi.

Rotor chulg’amidan tokni olish kontakt xalqa va cho`tkalar yordamida amalga oshiriladi. Aylanuvchi trans shakl torning stator chug’amlari 400, 1000, 2000 va 4000 Gts chastotadagi o`zgaruvchan tokka ulanadi. Ulangan tokni o`zgartirish qonuni sinusoidal yoki to`g’ri burchakli bo`lishi mumkin. Stator chulg’amlarini o`zgaruvchan tok tarmog’iga ulanganda aylanuvchi magnit maydoni hosil bo`ladi. 1.7,*e*-rasmdagi strelka ayni momentda rotorda o`tadigan natijaviy magnit oqimini ko`rsatadi. Magnit maydoni stator chulg’amiga ulangan tokc hastotasiga mos tezlik bilan aylanadi. Aylanuvchi magnit maydoni rotor chulg’amida amplitudasi deyarli doimiy bo`lgan o`zgaruvchan kuchlanish induktsiyalaydi. Rotor chulg’amida induktsiyalangan kuchlanish chiqish signali bo`lib, uning fazasi statorga sinusoidal kirish signaliga nisbatan siljigan bo`ladi. Fazalarning bunday siljishi rotorning holatidan bo g’liq bo`ladi. Agar rotor vertical joylashgan bo`lsa, unda musbat maksimal kuchlanish induktsiyalanadi, uning sinusoidal chulg’ami ham maksimal musbat cho`lg’atishga ega bo`ladi. SHunday qilib, rotor valining burilishida, uning mexanik aylanish burchagi elektrik, ya`ni fazalar siljishiga aylantiriladi.

Ko`p qutbli aylanuvchi trans shakltorlar keng qo`llanadi. O`n qutbli aylanuvchi transhakltorning ham ishlash printsipi xuddi shunday. Bu ikki aylanuvchi transshakltorlarning farqi mexanik aylanish burchagiga nisbatan fazalarning elektrik siljishidan iborat bo`ladi.

Qadamli elektrdvigateli.Bunday dvigatellar RDB stanoklar surish yuritmalarida keng qo`llanadi.U jamlangan chulg’amli reaktiv rotorli sinxron mashinadir. MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan metal kesish stanoklar surish yuritmalari uchun qadamli dvigatella r (SHD-4, SHD-5) uch fazali sxema bo`yicha quriladi. Bunday dvigatelning ishlash printsipi quyidagicha. Stator (1) (1.8,*a*-rasm) uch juft qutb va chulg’amlarga (I-III) ega. Rotor (2) ham uchta sektsiyaga bo`lingan, lekin ular aylana bo`yicha qutb oralig’I masofasining 1/3 qismiga siljitilgan. SHunday qilib rotorning birinchi sektsiyasi qutbi stator qutbibilanto`g’rituradi, ikkinchisektsiyaqutbistatorqutbiganisbatan 1/3 qismga, uchinchisektsiyaqutbi esaqutboralig’Imasofasining 2/3 qismigasiljiganbo`ladi.



1.8-rasm. Qadamli dvigatel’:

a – qo`rilma; b, d – ishlash printsipi

Agarstatorningbirinchifazachulg’amiga (I) doimiytokulansadvigatelrotorishundayholatni egallaydiki, bundarotorningbirinchisektsiyaqutbistatorqutbiningqarshisidao`rnatiladi. Agar so`ngra birinchi fazadagi tokni uzib, ikkinchi fazaga tokberilsa, rotor 1/3 qadamgaburiladi (1.8,*b*-rasm).

I, II, IIIobmatkalargaketma-kettokberilsa, rotorsoatstrelkasibo`yichaaylanadi (1.8,*d* -rasm). Agarfazalarniteskaritartibdatokkaulansarotorteskaritarafgaaylanadi.

Rotorning burilish burchagi $1{,}5^0$ yoki 3^0 ni tashkil qilishi mumkin, olti kontaktli qo`shgich bilan jihozlangan SHD-4 dvigatelida impul’slarining maksimal chastotasi 800 Gts. Bundaydvigatelimpul’smiqdori 0,01 mmbo`lganda 1200 mm/mingachasurishtezliginita`minlaydi. Hozirgi vaqtda katta chastotali tok impulsiga ega qadamli dvigatellar ishlab chiqarilmoqda, ular 5-10 m/min surishtezliginita`minlayoladi.

Elektrogidravlik qadamli yuritma. Ishlab chiqariladigan qadamli dvigatellarning quvvati uncha katta bo`lmaganligi uchun burovchi momentni kuchaytirish gidravlik kuchaytirgichlar yordamida ta`minlanadi. Burovchi moment gidro stantsiyasidagi moyoqimi energiyasidan foydalanish hisobiga orttiriladi. RDB stanoklarda momentni gidro kuchaytirgichlari foydalaniladi. Ular qadamli elektrodvigatel va kichik inertsiyali yuqori momentli gidroyuritmadan tashkiltopganbo`ladi.

Gidrokuchaytirgichkuzatuvchiboshqarishga egaaksial-porshenligidromotordaniborat (1.9,*a*-rasm). U qadamli dvigatel beradigan burovchi momentni kuchaytirishni ta`minlaydi. Gidromotor rotori (3) da porshenlar (2) joylashgan bo`lib, ular o`qiy yo`nalishda harakatlanishi mumkin. Taqsimlovchi (4)

ning yarim xalqa tirqishi R1 orqali dvigatelga kelib tushadigan moy bosimi ostida porshenlar (2) tayanch sharikopodshipnik xalqasi (1) ga tiraladi. Xalqa qiya joylashgan bo`lib, porshenlar podshipnik hosil qilgan qiya tekislik bo`yicha sirpanib, rotorni rasmda ko`rsatilgan strelka bo`yicha burilishga majbur qiladi.

Rotor Aholatni egallagandaungamoyningoqibkirishito`xtaydi, chunkirotorteshigitaqsimlagichningteshikniyopish elementigato`g'rikeladi. Keyingi burilishda moy taqsimlagichning yarim xalqa tirqishi R2 orqali oqib chiqadi. Shunday qilib, har bir porshen, rotorning yarim aylanishida ishchi yo`lini bajaradi, ikkinchi yarim aylan ishida esa teskari (salt) yurishni bajaradi.



1.9-rasm.Burovchi momentni gidro kuchaytirgich.

Rotorningaylanishyo`nalishinio`zgartirishuchunmoybosimostidatirqishR2 dankiritilibtirqishR1 danoqibchiqariladi. Moy oqimini boshqarish qadamli dvigatel tomonidan boshqariladigan kuzatuvchi qurilma vositasida amalga oshiriladi. Bu dvigatel valik uzatuvchi qurilma plunjeri bilan birlashtirilgan. Plunjerda xalqasimon ariqchalar K1 va K2 hamda bo`ylama tirqishlar P1 vaP2 mavjud. Plunjer gidrokuchaytirgich vali bilan birlashtirilgan vtulka 5 da o`rnatilgan. Vtulka (5) xalqasimon ariqchalari V1, V2, V3, V4 bo`lgan korpus (7) ga kiydirilgan.

Xalqasim onariqcha V2 ga kanal D bo`yicha bosim ostidagi moy beriladi; ariqcha V2 moyni chiqib ketishi uchun xizmat qiladi (kanal S); ariqchalar V1, V4 taqsimlagich (4) bo`shlig'idagi kanallarga ulangan. 1.9,*a*-rasmdako`rsatilganholatdaplunjer(6)gidrokuchaytirgichgamoykirishiniyopibturadivau ishlamaydi. Lekin moyni gidronasosdan kanal D, kuzatuvchi qurilma korpusi ariqchasi, vtulka (5) teshigi O1 bo`yicha plunjer tirqishi iP1 ga va so`ngra ariqchalar K1, V1 va taqsimlagich (4) orqali gidrokuchaytirgich rotoriga tushib, uni plunjer

aylanadigan tomonga burishi uchun plunjerni juda kichik burchakka burish etarli bo`ladi (1.9,*b*-rasm). Moyning gidro kuchaytirgichdan chiqib ketishi xalqasimon ariqcha V4, plunjer tir qishi P2, vtulka( 5) teshigi O2, ariqcha V3 va kanal S orqali ta`minlanadi (1.9,*d*-rasm). Agar plunjerni qadamli dvigatel' yordamida to`xtovsiz aylantirilsa, u bilan bir vaqtda (undan orqaroqda qolib) gidro kuchaytirgich rotori ham aylanadi. Plunjert o`xtaganda vtulka teshiklarini yopib, moy harakatini to`xtatadi va gidro kuchaytirgich rotori ham darhol to`xtaydi. Gidro kuchaytirgichni teskari tomonga aylantirish uchun qadamli dvigatel valining aylanish yo`nalishini o`zgartirib, kuzatuvchi qurilmada moy oqimi yo`nalishini teskari yo`nalishga o`zgartirish etarli.

Kuzatuvchi elektr yuritma. Kuzatuvchi yuritmalarda qo`llanadigan elektr dvigatellarning o`ziga xos xususiyati – bu aylanish yo`nalishini o`zgartirishi bilan birga aylanish tezligini keng diapozonda ravon rostlash imkoniyatidir. Shu maqsadlarda tezlikni keng diapazonda ravon rostlashni taminlash bilan birga etarlicha yuqori FIK ega bo`lgan doimiy tok elektro dvigatellari keng foydalaniladi. RDB stanoklar bosh harakat mexanizmlari uchun rostlanadigan doimiy tok elektro dvigatellari qatorning ixtiyoriy maxraji bo`yicha qirqish rejimlarini tanlash, adaptiv boshqarishni qo`llash bilan tezlikni qirqish vaqtida korrektsiyalash, tezlikni o`zgartirishni boshqarishni soddalashtirish imkoniyatlarini ta`minlaydi. Yangi modeldagi qator stanoklarda bosh harakat mexanizmlarida tiristorli o`zgartirgich bilan jihozlangan yuritmalar o`rnatilgan. RDB stanoklarda tezkor doimiy tok elektrodvigatellaridan tashqari rostlanadig an o`zgaruvchan tokelektr yuritmalari ham qo`llanadi [7, 12, 16].

Asboblarni avtomatik almashtirish qurilmalari. RDB ko`p operatsiyali stanoklarning asosiy konstruktiv xususiyatlaridan biri buularda asboblarni avtomatik almashtirish qurilmasining mavjudligidir. Umumiy holda, asboblarni almashtirishni avtomatlashtirish uchun ikki xil asosiy elementlardan tashkilt opgan qurilma va mexanizmlar sistemasi: bir yoki bir nechta zagotovkalarga ishlov berish uchun etarli bo`lgan asboblarni saqlash magazini; asbobni magazindan stanok shpindeliga va teskari uzatish uchun asbobni avtomatik almashtirish qurilmasi foydalaniladi.

***Magazin uyasi va stanok shpindelida asboblarning o`qdosh joylashishida*** ularni almashtirish uchun magazin uyasi o`qi shpindel o`qi bilan mos kelguncha magazinni aylantirib, asbobni magazindan chiqarib, shpindelda mahkamlash etarli. Ish bajarib bo`lgan asbobni magazinda o`rnatish teskari tartibda amalga oshiriladi. Bunday qurilmalarning ishlash printsipi 1.10-rasmda ko`rsatilgan.



1.10-rasm. Stanok shpindeli va magazinida asboblarning o`qdosh joylashishida ularni almashtirish sxemasi.

Qurilmada 12 ta asbobga mo`ljallangan magazin qiya burilish burchagiga ega bo`lgan yirik baraban shaklida bajarilgan. Asboblarni almashtirish vaqtida pastki holatda joylashgan magazin uyasi o`qi shpindel SH o`qi bilanm uvofiqlashtirilgan. Pinol pastga harakatlanganda shpindel asbob to`g'rilagichdan tutib, uni zagotovka tomon suradi. to`g'rilagich shpindelda avtomatik siqiladi. Pinolning yuqori holatga harakatlanishida asbob to`g'rilagichi asbob bilan birga shpindeldan avtomatik ajralib magazin uyasida qoldi.

Shpindelning yuqori holatida magazin aylanib, dasturda berilgan keyingi asbobni izlash bajariladi. Burilish burchagi kerakli asbob joylashgan uya nomeri bilan aniqlanadi. Magazinning burilish vaqti mashina vaqti bilan birlashtirilmagan, ya`ni to`xtab turgan shpindel holatida bajariladi. Ba`zi stanoklarda magazin (revolver kallak) shpindel bilan birgalikda uning ishchi surishida harakatlanadi.

Ko`rib o`tilgan usul bir qancha kamchiliklarga ega: 1) shpindel pinoli asbobni ishchi zonaga uzatish uchun uzoq yordamchi yo`lni bajaradi, pinolning uzunli gitufayli cho`yan va po`lat zagotovkalarga ishlov berishda shpindel uzelining bikrligi etarli bo`lmaydi; 2) uyalarda asboblarni to`g'rilagichlar vositasida o`rnatish, ularni bir-birida katta masofada joylashtirish zaruriyati ruxsat etilgan gabarit o`lchamlarida maksimal hajmini cheklanganligi, aks holda, ishlamaydigan asbob ishchi pozitsiyasiga halaqit qiladi; 3) asbobni izlash uchun magazinni zagotovkadan katta

masofaga siljitish talab etiladi; 4) asboblar magazini stanok ishchi zonasiga bevosita yaqin joylashgan bo`lib, uni metall changlari sovitish-moylash suyuqligi, mayda qirindilar bilan ifloslanishiga olib keladi.

Asboblar magazinini stanok ishzonasidan tashqarida joylashtirish uchun, uni shpindel babkasidan yuqoriga ko`tarishadi, boshqa tomonga o`rnatishadi, ba`zi hollarda ustundan alohida o`rnatiladi. Barcha bunday**hollarda *asbob o`qi magazinva stanok shpindelidan bir xil emas, o`zaro parallel bo`ladi*** (1.11-rasm).

Asboblarni almashtirish, bunday hollarda avto operator yordamida bajariladi. Gorizontal shpindelli metall qirqish stanoklarda asboblar magazin M stanok ustunida o`rnatiladi Magazinning stanok shpindeli bilan aloqasini ta`minlash uchun ikki tutqichli avto operator A dan foydalaniladi. Asboblarni almashtirishda avto operator pastdan yuqoriga yurib magazin uyasida joylashgan kerakli asbob To`g'rilagich sini tutadi. Bir vaqtning o`zida shpindel babkasi SHB shpindel SH bilan yuqoriga ko`tariladi va shpindeldagi asbob to`g'rilagichi avto operatorning pastki tutqichiga kiradi.



1.11-rasm. Stanok shpindeli va magazinda asboblarning parallel joylashishida ularni almashtirish sxemasi.

So`ngra avto operator shpindel o`qi bo`yicha harakatlanib, ikkala to`g'rilagichni ham chiqarib oladi va 180^0 ga burib, almashtiriladigan asbobni shpindel tomonga olib keladi. Avto operator shpindel o`qi bo`yicha teskari harakatlanib asbobni shpindelga kiritadi, u erda asbob avtomatik siqiladi. Bir vaqtning o`zida ishlab bo`lgan asbob magazin uyasiga o`rnatiladi.

Asboblari magazin M da vertikal joylashtirilgan stanoklarda (1.12- rasm) asboblar buriladigan vtulka uyalar G da mahkamlangan.

Asboblarnialmashtirishpozitsiyasidavtulkalargorizontalholatgaburiladivaasbobo` qishpindel'o`qibilanparallelholatgao`tadi. Asbobnialmashtirishtsiklioddiy.



1.12-rasm.Buriladiganavtooperatorbilanasboblarnialmashtirishqurilmasi.

AvtooperatorAneytralholatidangidrotsilindrTS1 vareykali-tishliuzatmayordamidao`zo`qiganisbatanaylantiriladi. So`ngragidrotsilindrTS2 yordamidaavtoope ratoro`zo`qibo`ylabharakatlanib, magazinvashpindeldanasboblarnisug'iriboladi,

ularbilan 180^0gaaylanib, ularnijoyinialmashtiradi. Avtooperatorneytralhol atigaqaytishidashpindelkeyingio`tishnibajaradi.

Ishlabbo`lganasbobbo`shaganvtulkagauzatiladi. Agarmagazinvtulka siuyasiko dlansa, ishlabbo`lganasbobnivtulkauyasigauzatishdanoldinbo`shaganuyani 90^0burib, magazinishlabbo`lganasbobuyasiniizlashholatigao`tadi,unitopganidanso`ngvtulkagori zontalholatgao`tkaziladivaasbobshundanso`ng, vtulkauyasigauzatiladi. Buvaqtda vomidastanokishlamayto`xtabturadi, natijada, asbobnialmashtirishvaq tiaytarlidarajadaortadi. AsboblarnialmashtirishshpindelbabkasiSHBningfaq atvertikal holatidaginaamalgaoshirilishimumkin.

Moslanuvchanishlabchiqarishsistemalaritarkibidaishlaydiganko`poperatsiyalista noklardaba`zihollardaasboblarnimagazindaavtomatikalmashtirishtashkil etiladi. Buninguchunasboblarskladihisoblanganstellajvadasturlanadiganrobotdanfoydalanilad

i. Asboblarniavtomatikalmashtirishqurilmasiga egako`pasboblistanok lardaasbobl arTo`g’rilagichsinishpindeldaavtomatikmahkamlashmexanizmizaruriy elementhisoblanadi. Mahkamlashasboblarnia vtomatikalmashtirishqu rilmasishp indel’uyasigao`rnatilgandanso`ngamalgaoshiriladi.
Mahkamlashmexanizminingbittavarianti 1.15-rasmdako`rsatilgan.



1.15-rasm. SHpindel’uyasidato`g’rilagichnimahkamlashsxemasi.

To`g’rilagichnimahkamlashholatidatortkichtarelkasimonprujinalar (8) ostidaoxirgio`ngholatdaturadi, vaasbobto`g’rilagichi (1) dumi (3) dantirsak (4) bilanshpindelningo`rnatishuyasi (2) damahkamushlabturadi. to`g’rilagichnibo`shatishuchunbirtomongata`sirqiladigangidrotsilindr (12) xizmatqiladi. Gidrotsilindrni ngo`ngkamerasigabosimostidagimoyberilganda,porshenshtoki(11)tayanchpodshipnigi orqalitarelkasimonprujinalarkomplekti(8)nisiqibtortgich(6)nichapgasuradi. Tirsak (4)sh pindel’rastochkasigatushibdum(3)nibo`shatadivatortgichningkeyi ngiyurishi dauto`g’rilagichdumigatiralibasboblito`g’rilagichnishpindeldantaxminan 6 mmitarib chiqaradi.

Avtooperatorto`g’rilagichnishpindeldanosonsug’uribolib,unidasturbo`yichakeyi ngisibilanalmashtiradi. Stanoknisozla shvaqtidato`g’rilagi chqo`ldao`rnatibechibo linadi.To`g’rilagichnitirsak (4) bilanishonchlitutishiuchu nprujinalar (5) mavjudbo`lib, tirsakning o`ngyurishiniboshida uningchapuchla riniTo`g’rilagichdumi gasiqadi. Tirsakningyoyiladiganta relkasimonprujinata`sirios tidakeyingiyurishid atirsakshpin del’teshigiringqisqaradiganqismiga tushibto`g’rilagichdumin isiqilganholatd aushlabturadi.

Asbobto`g’rilagichningsiqilmaganholatidashpindelaylanishiningoldiniolishuchu nmikroqaytaqo`shgich (13) o`rnatilganbo`lib, ungagidrotsilindr (12) shtokining uzaytirilgano`nguchita`sir etadi. SHpindeloboyma (9) ningpodshipniklari (7) va (10) o`rnatilgan.

RDB tizimlari klassifikatsiyasi

Otechestvennaya klassifikatsiya sistem CHPU

Klassifikatsiyu sistem CHPU, primenyaemix votechestvennom mashino stroenii, provodyat po vidu rabochix dvijeniy. Razlichayut pozitsionnie i kontur nieustroystva CHPU.

Stanokning pozitsion, konturli va adaptiv RDB xillari bor.

Pozitsion RDB – boshqarish xili bo`lib, bunda stanokning ish organlari topsiriqdagi nuqtalarga ko`chish traektoriyalari ko`rsatilmagan holda ko`chadi. Mazkur boshqarish asosan, parmalash-teshik yo`nish stanoklarida va asbobning o`qi topshiriqdagi nuqtaga o`rnatilgandan keyin ishlov berish boshlanadigan boshqa stanoklarda qo`llaniladi.

Konturli RDB – boshqarish xili bo`lib, bunda stanokning ish organlari ishlov beriladigan zarur kontur hosil bo`lgunga qadar topshiriqdagi traektoriya bo`ylab va topshiriqdagi tezlikda siljiydi. Bunday boshqarish shakl yasovchi murakkab harakatlar mavjud bo`lgan stanoklarda, masalan, tokarlik, frezalash va h.k. stanoklarda qo`llaniladi. Shakl yasovchi murakkab harakatlar oddiy xarakatlarning bir vaqtda bir nechta koordinatalar bo`ylab bajarilishi natijasida paydo bo`ladi.

Adaptiv RDB – boshqarishning bu usulida zagotovkaga ishlov berish jarayoni ishlov berish sharoitlarining o`zgarishiga avtomatik moslanadi. Ishlov berish sharoitlari kesish chuqurligi, zagotovka ashyosining qattiqligi va h. k. Ga qarab o`zgaradi.

RDB sistemasi deyilganda bajaradigan ishi jihatdan o`zaro bog’langan va o`zaro ta`sirda bo`lgan stanokning boshqarilishini ta`minlaydigan texnikaviy va dasturli vositalar majmuasi tushuniladi. **RDB sistemalari ochiq va berk bo`ladi.**

Boshqarishning ochiq sistemalarida (teskari bog’lanish yo`q bo`lagn sistemalarda) faqat topshiruvchi axborotdan, ya`ni axborotlarning bir oqimidanf oydalaniladi. Bunday sistemalarda boshqaruvchi dasturning bajarilishi ustidan nazorat va texnologik jarayonni bajarishda sodir bo`ladigan chetga chiqishlar to`g’risida axborot bo`lmaydi.

Boshqarishning berk sistemalari topshiruvchi axborotdan hamda boshqaruvchi dasturning bajarilishi va texnologik jarayonning qanday kechayotganligi to`g'risidagi teskari bog'lanish axborotidan birgalikda foydalanish asosida ishlaydi.

Boshqaruvchi dastur dastur tashuvchilarga yoziladi. Dastur tashuvchilar tashqi va ichki bo`ladi. Tashqi dastur tashuvchilarga perfokartalar, perfolentalar, magnit tasmalar, sim, barabanlar va disklar, kino tasma kiradi. Ichki dastur tashuvchilarga shtekkerli panellar va kommuntatorlar, almashib ulagichlar yoki knopkalar (tugmachalar) o`rnatilgan panellar, elektron-nurtrubkalar va h.k. kiradi. Tashqi dastur tashuvchilarni tez RDB qurilmasining ajralmas qismi bo`ladi.

Barcha dasturt ashuvchilar sig'imi, axborotni yozish va Hisoblash tezligi, tez almashtirilishi (tashqi dastur tashuvchilar), puxtaligi, narxi va h. k. Bilan tavsiflanadi.

RDB sistemalari dasturni ifodalaydigan axborot xarakteriga qarab uzluksiz, diskret va diskret-uzluksiz bo`ladi. Uzluksiz sistemalarga fazali sistemalar (fazali modullash sistemalari) misol bo`la oladi. Bularda dastur fazasi dasturlanadigan ko`chishlarga mutanosib (proportsional) bo`lgan sinusoidal kuchlanish bilan beriladi. Ko`pchilik frezalash stanoklari RDB uzluksiz sistemalari bilan jihozlangan.

Diskret sistemalarga qadam – impulsli va hisob-impulsli sistemalar kiradi. Ochiq sistemalarga kiradigan qadam-impulsli sistemalarda harakat manbai sifatida momentni kuchaytirgichli qadamli dvigatellari shlatiladi. Hisob–impulsni sistemalarda teskari bog'lanish datchiklari bilanj ihozlangan hisoblash sxemalaridan foydalaniladi. Bunday sistemalar turli guruhdagi zamonaviy stanoklarda keng qo`llaniladi.

RDB qurilmasi deyilganda, boshqaruvchi dasturga va boshqaruvchi dasturga va boshqariladigan obektning holati to`g'risidagi axborotga muvofiq stanokning ish bajaruvchi organlariga boshqarish ta`sirini ko`rsatuvchi qurilma tushuniladi. RDB qurilmasining to`rt xil vazifasini ko`rsatish mumkin.

1. Detalning shakllanishini boshqarish (RDB ning geometrik vazifasi). Bu vazifani geometrik axborotni chizmani konkret buyumga aylantiruvchi shakl yasovchi xarakatlarga o`zgartirishdan iborat.

2. Stanokning diskret avtomatikasini boshqarish (RDB ning mantiqiy vazifasi). Bu vazifa texnologik ta`minot bilan bog'liq bo`lgan bir qancha yordamchi ishlarni avtomatlashtirishdan iborat. Bunday ishlarga asbobni avtomatik almashtirishni boshqarish; asosiy harakat va surish yuritmalaridagi almashlab ulashlarni boshqarish; siqish qurilmalarni, sovitish, moylash, ihotalarni siljitish va h.k. ishlarini boshqarish

kiradi. Bu vazifalarni hal etish uchun tsiklga elektro avtomatika sistemalari yaratiladi.

3.Stanokning ish jarayonini boshqarish (RDB ning texnologik vazifasi). Bu vazifa ishlov beriladigan detallarning talab etilgan sifatiga kam harajatlar bilan erishishdan iborat. Sifatni asosiy ko`rsatkichlari sirtlarga ishlov berishsh aniqligi va ularni o`zaro joylashish aniqligi, shuningdek, g'adir – budurlik darajasidan iborat. Stanokning ish jarayonini boshqarishga asbob holatini nazorat qilish va aniqlash, uni o`lchamlarga moslab o`rnatish ishlari misol bo`la oladi.

4. Atrof ishlab chiqarish muhiti bilan o`zaro ta`sirda bo`lish (RDB ning terminal vazifasi). Bunday o`zaro ta`sirga operator va boshqarish sistemalari bilan muloqotda bo`lish kiradi.

Axborotlarning geometrik va texnologik turlari mavjud.

Geometrik axborot detal va asbob shaponai, ulardagi elementar yuzalarning o`lchamlarini va ularning fazoda o`zaro joylashishini tasvirlaydi.

Texnologik axborot detalning texnologik tafsilotlarini va uni tayyorlash shartlarini tasvirlaydi.

RDB stanoklarda barcha axborot ma`lum kod yordamida kodlanadi. Kod qator qoidalardan va bir turdagi axborotga o`zgartirishda qo`llaniladigan qator shartli belgilardan iborat.

Ikkilik axborotning birinchi darajali (engkichik) birligi bit deb ataladi. Bayt-ikkita axborot miqdorini bildiruvchi birlik. Bir bayt sakkiz bit ga teng.

Kilo bayt – ikkita axborot miqdorini bildiradi ko`rsatuvchi birlik. Bir kilo bayt 1024 ($\approx 10^3$) baytga teng.

Mega bayt – ikkilik axborot miqdorini bildiruvchi birlik. Bir megobayt 1048576 ($\approx 10^6$) baytga teng.

Mashina so`zi –EHM bloklarining darajalariga qarab mos holda 1,2 yoki 4 bayt (8,16 yoki 32 bit) ga teng axborot tizimi.

Tayanch nuqta – hisoblangan traektoriya nuqtasi. Bu nuqtada yoki shu traektoriyani tasvirlovchi qonun o`zgaradi, yoki texnologik jarayonning borish shartlari o`zgaradi.

Ekvidistanta – detal konturining chiziqlaridan teng masofada gichiziq.

Approksimatsiya – bir funktsional bog'lanishni ma`lum aniqlikda boshqa funktsional bog'lanish bilan almashtirish jarayoni.

Interpoly atsiya – tekislikda yoki fazoda asbob markazining harakat traektoriyasidagi oraliq nuqtalarini olish (yoki hisoblash).

Geometrik element – xisoblangan traektoriyaning yoki detal konturining bir qonun bo`yicha va bir kordinatalar sistemasida ko`rsatilgan uzluksiz qismi (uchastkasi).

Interpolyator – RDBsistemasiningxisoblashbloki. Bu blok stanok ish organlarining koordinata o`qlari bo`ylab siljishi uchun boshqaruvchi ta`sirlarini navbati bilanberadi. Bunda ish organlari stanokni boshqarish dasturida ko`rsatilgan tayanch nuqtalarining koordinatalari o`rtasidagi funktsional bog'lanishga mos holda siljiydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. GOSTR 50369—92. Elektro privodi. Termini I opredeleniya. — M.: Izd-vo standartov, 1993. — 16 s.

2. ZavgorodnevP. I. Rabotaoperatoranastankaxsprogrammnimupravleniem : ucheb. posobiedlyatexn. uchilish / P. I. Zavgorodnev. — M. : Vissh. shk., 1981. — 136 s.

3. Programmnoeupravleniestankamiipromishlennimirobotami : uchebnik / [V.L.Kosovskiy, YU.G.Kozirev, A.N.Kovshovidr.]. — M. : Vissh. shk., 1989. — 272 s.

4. SergievskiyL. V. PosobienaladchikastankovsCHPU / L. V. Sergievskiy, V.V.Ruslanov. — M.: Mashinostroenie, 1991. — 176 s.

5. SolomentsevYU. N. Upravleniegibkimiproizvodstvennimisistemami / YU. N. Solomentsev, V.L.Sosonkin. — M.: Mashinostroenie, 1988. — 552 s.

6. SosonkinV. L. Mikroprotsessorniesistemichislovogoprogrammnogoupravleniyastankami / V.L. Sosonkin. — M. : Mashinostroenie, 1985. — 288 s.

7. CHerpakovB. I. Metallorejushiestanki : Uchebnikdlyanach. prof. obrazovaniya / B. I. CHerpakov, T. A. Al'perovich. — M.: Izdatel'skiytsentr «Akademiya», 2004. — 368 s.

8. CHislovoeprogrammnoeupravleniestankami / [V.L. Sosonkin, O. P. Mixaylev, YU. APavlovidr.]; podred. V. L. Sosonkina. — M.: Mashinostroenie, 1981. — 398 s.

9. CHudakovAL. Proektirovaniesistemupravleniyastankamiistanochnimikompleksami : gl. 1.8 // Mashinostroenie : entsiklopediya. T. FV-7.

10. Metallorejushiestankiiderevoobrabativayusheeoborudovanie. — M.: Mashinostroenie, 19

Ma’ruza 2

Mavzu: RDB dastgohlari uchun moslamalar

Reja

1.RDB dastgohlari uchun universal moslamalar

2.Ko’p maqsadli RDB dastgohlari uchun osnastkalar

3.RDB dastgohlari uchun maxsus moslamalar

4.RDBdastgohlariuchunsanoatrobotlari

RDB dastgohlarida keng nomeklaturali kichik partiyali detallarga ishlov beriladi. Bu dastgohlar uchun asboblarni tz almashtirish va detalning murakkabligi va yuqori aniqligi bilan xarakterlanadi. RDB dastgohlari uchun moslamalar soda va ish vaqtida ishonchli bo’lishi kerak. Konsentratsiyalangan ko’p o’tuvli detallarga ishlov berishda moslama detalning barcha yuzalariga ishlov berish imkoniyatini yaratishi lozim.



2.1-rasmRDBdastgohlariuchunmoslamalar

Stanok moslamasi – metall kesish stanokda zagotovkani o`rnatish, bazalash va mahkamlash uchun zarur bo`lgan texnologik uskunadir.

